

II. TOSHKENT VILOYATI SANOATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025- yil yanvar-iyun


1. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
2. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
3. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
5. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra viloyatda **6 576** ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan **419** tasi (*faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 foizi*) Chirchiq shahriga, **191** tasi (*2,9 %*) Yangiyo'l shahriga, **931** tasi (*14,1 %*) Zangiota tumaniga, **570** tasi (*8,7 %*) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

(1-iyul holatiga ko'ra)



2. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan jami **72 117,5** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **105,7** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	72 117,5	105,7
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	2046,3	104,2
Olmaliq	23213,9	107,9
Angren	3925,7	110,4
Bekobod	3510,4	82,8
Ohangaron	2657,7	107,8
Chirchiq	7035,3	106,3
Yangiyo'l	560,5	102,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	582,6	107,1
Ohangaron	4863,2	102,7
Bekobod	264,1	105,0
Bo'stonliq	1723,9	102,1
Bo'ka	200,1	85,2
Quyichirchiq	819,3	103,3
Zangiota	2374,3	102,8
Yuqori Chirchiq	1906,8	107,2
Qibray	5691,0	101,1
Parkent	669,3	106,2
Piskent	532,1	109,2
O'rta Chirchiq	1146,5	102,7
Chinoz	498,6	104,3
Yangiyo'l	1370,9	102,3
Toshkent	1750,9	106,0


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq shahrida (155 344,4 ming so'm), Ohangaron shahrida (62 905,2 ming so'm), Chirchiq shahrida (39 935,6 ming so'm), Ohangaron tumanida (48 884,9 ming so'm), Qibray tumanida (31 701,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (23 107,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 103,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angren shahrida – 108,6 %, Olmaliq shahrida – 106,2 %, Ohangaron shahrida, – 105,9 %, Chirchiq shahrida – 104,7 %, Oqqo'rg'on tumanida – 105,5 %, Piskent tumanida – 107,4 % ni tashkil etib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

(yanvar-iyun oylarida)




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelib 61 667,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,5 % ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 3 253,3 mlrd so'm (4,9 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 6 966,3 mlrd so'm (9,7 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 230,7 mlrd so'm (0,3 %)ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**
(2025-yilning yanvar-iyun oylarida)

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
C - Ishlab chiqarish sanoati
D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




3. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **16,4** ming tonna kalava ip (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 50,5 % ga ko'paygan), **3,7** ming litr etil spirti (176,2 %), **29,8** ming tonna o'simlik yog'i (131,8 %), **112,3** ming tonna un (141,6 %), **95,3** ming tonna shakar (135,7 %) hamda **891,2** ming tonna sement klinkerlari (126,9 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun
Kalava ip, ming t	8,7	10,9	16,4
E	2,3	2,1	3,7
O'simlik yog'i, ming t	17,5	22,6	29,8
Un, ming t	86,4	79,3	112,3
Shakar, ming t	91,1	70,2	95,3
Sement klinkerlari, ming t	695,1	702,1	891,2

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan **13 407,9** mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Jumladan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **18,6 %** ni (2024- yil yanvar-iyun oylarida – 17,1 %) tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida 0,9 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 8,8 % (7,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 55,4 % (52,4 %), quyi texnologiyali 18,2 % (24,9 %) ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 88,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 89,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	49640,7	10250,2	9085,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1448,8	1524,8	1548,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 26,5 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 6,3 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 7,2 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	22,9	27,1	47,3
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd.so'm	49,6	72,1	97,4

4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17 426,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 25,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 25,4 % ni tashkil etgan.

Kichik biznes (tadbirkorlik) hajmi va ulushi (yanvar-iyun)



5. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvlari ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvlari materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.